



## BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI DARSLARIDA TEXNIK QUROLLARDAN FOYDALANISH

Umirbaeva Ulzada

Nukus davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10820711>

### ARTICLE INFO

Received: 11th March 2024

Accepted: 12th March 2024

Published: 15th March 2024

### KEYWORDS

*Morfologiya, so'z turkumlari, ot, sifat, son, olmosh, uzluksiz ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, oliy ta'lim.*

### KIRISH

Uzluksiz ta'lim tizimida ona tili o'qitishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning nutq madaniyatini oshirish, ular ongida o'z ona tiliga nisbatan mehr-muhabbatni uyg'otish kabi qator masalalarni qamrab oladi.

Lekin bu bilan uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida ona tili darslari bir xil qolipda o'qitiladi va tashkil etiladi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunki barcha bosqichda ona tili fani turlicha shaklda va mazmunda o'qitiladi hamda o'rgatiladi. Har bir bosqichda mazkur fanni o'qitish bir-biridan birmuncha farq qiladi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, boshlang'ich sinflar ham shartli ravishda ikki bosqichga bo'linadi. Bular:

Kichik yosh- 1 va 2 sinflar;

Yuqori bosqich- 3 va 4 sinflar.

Quyi bosqichda o'quvchilarga morfologiyaning asosi bo'lmish so'z turkumlari alohida o'rgatilmaydi. Uning o'rniga 1 sinfning ikkinchi yarimidan boshlab, o'quvchilarga savol berish orqali so'zlarni farqlash o'rgatiladi. Masalan:

Savol: Bu kim?,

Javob: Bu- ona.

Savol: Bu nima?,

Javob: Bu- daraxt.

Savol: Mashina nima qilayapti?,

### ABSTRACT

*Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda ona tili hamda o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish metodikasi uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlarida ona tili o'qitishdan tubdan farq qiladi. Mazkur maqolada ushbu jarayonda qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar, jumladan ish daftarlari va elektron materiallarning qulayliklari muhokama etiladi.*

Javob: Mashina yurayapti va hakozi. Shu tariqa 2 sinfda ot va fe'l kabi so'z turkumlar haqida dastlabki tushunchalar berib boriladi.

Uchinchi sinfdan so'ng o'quvchilar so'zlarni turkumlarga bo'lib o'rganishga kirishadilar. Shaxs va narsaning nomini bildirganlar ot, belgisini bildirganlar sifat, son sanog'i va tartibini bildirganlar son, ular o'rnida qo'llaniladiganlar olmosh, ish harakatni bildirganlar esa fe'l ekanligini o'zlashtira boradilar.

### TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Professor S.Matchonov, H.Bakieva, X.G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva va G.Xolboevalaro'zlarining "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" darsligida boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga morfologiyadan o'rgatiladigan turkumlar va ularning kismlarini ajratib, quyidagi jadvalda aks ettiradilar va bu kabi jadval vositasida o'rgatish muhim didaktik ahamiyatga ega:

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe'l
Shaxs, narsa va joy nomini bildiradi	Shaxs va narsaning belgisini bildiradi	Shaxs, narsaning sanog'i va tartibini bildiradi	Kishilik olmoshlari shaxsni bildiradi va ot o'rnida qo'llaniladi	Shaxs, narsaning harakatini bildiradi
Kim? nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'ladi	Qanday?, qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladi	Necha?, nechanchi? so'rog'iga javob bo'ladi	Kishilik olmoshlarikim? So'rog'i javob bo'ladi	Nima qildi?, Nima qiladi?, nima qilyapti, nima qilmoqchi? kabi so'roqlariga javob bo'ladi
Birlik va ko'plikda qo'llanadi	O'zgarmaydi	Asosan o'zgarmaydi	Ular birlik va ko'plikdabo'ladi	Bo'lishli va bo'lishsiz shaklda qo'llanadi
Egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi	Gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi	Gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasidakeladi	Kishilik olmoshlari kelishik qo'shimchalar bilan qo'llanadi	Shaxs-son qo'shimchalarbilan tuslanadi

Kelishiklar bilan turlanadi	Sifatlaryasaladi	Sonlar yasalmaydi	Ular gapda bosh va ikkinchi darajali bo'laklar vazifasida keladi	Uch zamonni bildiradi
Gapda ega yoki ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi			Olmoshlar yasalmaydi	Gapda kesim vazifasida Keladi
Otlar yasaladi				Fellar Yasaladi

Mazkur jadvalda tilshunoslikning morfologiya bo'limiga teshishli boshlang'ich sinflarda o'raniladigan turkum va bo'limlar haqida ma'lumotlar berilgan. Ushbu jadvaldan o'rin olgan ma'lumotlar tahlilidan ko'rinadiki, boshlang'ich sinflarda morfologiyaning qator qismlari o'rgatilgani bilan bir necha turkum va ularning bo'limlarini o'qitish nazarda tutilmaydi.

Dars jarayonining muhim yutuqlaridan biri kompyuter texnologiyalari komponentlaridan foydalanishni ta'minlovchi dasturiy vositalarning yaratilishi bo'ldi. Ayniqsa, o'quv jarayonining tashkil qilishda bu dasturiy vositalar alohida ahamiyatga ega. Elektron qo'llanmalarning "Macromedia Flash", "GIF Animation", "Microsoft Front Page", "Abobe Fotoshop", "3D Max", "Microsoft Power Point" kabi dasturiy vositalardan foydalanib yaratilganligi qulaylik tug'dirmoqda. Chunki ular harakatli, rangli, ovozli tasvirlar yaratish imkonini beradi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining mavzuni tez tushunib olishga, o'zlashtirish sifatini oshishiga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan elektron darslik, qo'llanma va taqdimotlardan o'quv jarayonida keng foydalanilmoqda. O'qish, ona tili fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalari yordamida turli xil ko'rgazmalislaydlardan dars jarayonlarida foydalanish mumkin. Masalan: o'qish va ona tili fanlarida katta ekranda harflarni, so'zlarni bir-biriga qo'shib o'qish, so'ngra kichik ertak va hikoyalarni o'qish, harflarni to'g'ri va chiroyli yozish; matematika fanida oddiyamallardan foydalanib, slaydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob-kitobli o'yinlar tashkil qilish; tabiatshunoslik fanidan tabiatdagi hodisalar haqidagi soddal slaydlar yordamida tushunchalar berish mumkin. Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanqoq o'quvchining og'zaki nutqini rivojlanishiga, og'zaki hisoblash malakasini oshishiga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga turtki bo'ladi.

## XULOSA VA MUNOZARA

Bugungi kunda ta'limning barcha qismida bo'lgani kabi boshlang'ich ta'limda ham elektron resurslar muhim ahamiyatga ega. Ushbu resurslarni qo'llash bolaning tez o'zlashtirishi, mavzuni teran anglashi hamda eslab qolish qobiliyatining oshishiga olib kelishi shubhasiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Jomiy Bahoriston. "Yangi asr avlodi", 2017 yil.
2. Matchonov S. va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent, "Ishonchli hamkor", 2021 yil.
3. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi, Toshkent, 2017 yil.
4. Hamroev M.A. Ona tili. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2017 yil.

